

YOSH AVLODNI MILLIY MUSIQA VA AN'ANALAR RUHIDA TARBIYALASHNING ZAMONAVIY USULLARI

Abdualimova Gulsanam Sherali qizi

NavDU "Musiq ta'limi va san'at yo'nalishi

1-kurs magistranti

Anotatsiya: Bugungi kunimizda rivojlanish talabi barcha sohada qo'llanilmoqda va bunga yangiliklar kiritish maqsadida intellektual yoshlarimiz o'z g'oyalarini kiritmoqda. Albatta, bu sohalar orasida Musiqa sohasi ham yuksak o'rin egallamoqda. Zamonaviy musiqamizni xalq musiqalari bilan uyg'unlashtirish, ohanglarni saqlab qolgan holda milliy musiqamizni yangi talqinda yaratib bir qancha muvaffaqiyatli ishlar amalga oshirilmoqda. Bularning barcha musiqa sohasida ilmiy-tadqiqot faoliyatiga va rivojlanish manbaasiga katta ta'sir ko'rsatmoqda. Ushbu maqolada siz musiqa sohasida erishilgan yutuqlar va texnologiyaning qay darajada bu sohaga bog'liq ekanligi, shu bilan birga pedagog va talabalarining izlanishlari haqida tanishishingiz mumkin.

Kalit so'zlar: Musiqa, ta'lim, ilmiy-tadqiqot, yangilik, texnologiya, islohot, an'anaviy va zamonaviy musiqa.

Аннотация: Сегодня потребность в развитии проявляется во всех областях, и для внедрения инноваций наша интеллектуальная молодежь вносит свои идеи. Конечно, среди этих областей особое место занимает и музыка. Проводится ряд успешных работ по гармонизации современной музыки с народной, созданию новой интерпретации национальной музыки с сохранением мелодий. Все это оказывает большое влияние на научно-исследовательскую деятельность и является источником развития в области музыки. В данной статье вы можете узнать о достижениях и степени связи технологий с этой областью, а также об исследованиях преподавателей и студентов.

Ключевые слова: Музыка, образование, научные исследования, инновации, технологии, реформа, традиционная и современная музыка.

Abstract: Today, the demand for development is being applied in all areas, and in order to introduce innovations into this, our intellectual youth are introducing their ideas. Of course, the field of music also occupies a high place among these areas. A number of successful works are being carried out to harmonize our modern music with folk music, create a new interpretation of our national music while preserving the melodies. All of this has a great impact on scientific research activities and the source of development in the field of music. In this article, you can learn about the achievements and the extent to which technology is related to this area, as well as the research of teachers and students.

Keywords: Music, education, scientific research, innovation, technology, reform, traditional and modern music.

O'zbekiston Prezidenti Shavkat Miramonovich Mirziyoyevning 2017-2021 yillardagi 5-ustuvor harakatlar strategiyasi hamda 2019 yildagi "Yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish va ularning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish bo'yicha adabiyot, teatr va san'atning boshqa turlariga qiziqishlarini oshirishga, iste'dodini yuzaga keltirishda xizmat qiladi, deb tasdiqlangan. Shuningdek, xorij va o'zbek san'atshunos va pedagog olimlari ilmiy tadqiqotlari va tajribalariga tayangan holda o'rganildi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining yangi strategiyasi № УП -60 28.01.2022 yildan 2030 yilgacha qabul qilindi va unda barcha sohalaridagi bo'lgan yutuqlar va kamchiliklarni inobatga olib jahon hamjamiyati ravnaqi rivojida hozirjavob bo'lish va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish kabi, har sohaga qarab yangicha peshqadam rejalarni qamrab olgan. Musiqa sohasini isloh qilish maqsadida bir qancha yangiliklar kiritilmoqda. Bularning barchasi yoshlarimizning amaliy fanlar, zamonaviy hamda an'anaviy musiqaning rivojlanishiga milliy madaniyatning tiklanishiga va yosh avlodning ijobiy ruhda kamol topishida hissa qo'shmoqda. Yosh tadqiqotchi talaba yoshlarimiz xalq musiqasi namunalarini to'plash, ularni ilmiy asosda tahlil qilish, notalash, qayta ishlash zamonaviy hamda an'anaviy musiqani texnologiyalar orqali targ'ib etish kabi bir qancha yangiliklar kiritilmoqda. Bunga misol qilib, 1997-yil 29-avgust O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisida "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"da madaniyat va san'at musiqa sohasi uchun malakali o'qituvchilar tayyorlash bu sohani tubdan isloh qilish maqsadida bir qancha taklif va dasturlar aytib o'tildi.

Bunga misol qilib quyidagilarni keltirib o'tishimiz mumkin:

1) Musiqa ta'limi tizimi yangilash ;

Ya'ni maktabgacha ta'lim muassasalari, musiqa maktablari, kolej, oliy o'quv yurtlarida dars jarayonlarini zamonaviy texnologiyalar asosida olib boorish. Har bir ta'lim boshqichini o'rganish va isloh qilish.

2) Ilmiy-tadqiqot faoliyatini rag'batlantirish va qo'llab quvvatlash ;

3) Yosh izlanuvchi talaba yoshlar va ularning sohaga oid yangiliklarini ko'rib chiqish; Musiqashunoslar, ijrochilar va pedagoglar ilmiy izlanishlar olib borishini rag'batlantirish.

4) Milliy, an'anaviy yo'nalishimizni saqlab qolish;

Milliy yo'nalishimizda ijro etilgan maqomlar, o'zbek xalq kuy-qo'shiqlari, an'anaviy musiqa merosimizni yoshlar o'rtasida ommaviylashtirish va targ'ib qilish.

Demak, ta'limni rivojlantirishda biz texnologiyalardan ham unumli foydalanishimiz lozim. "Ta'lim texnologiyalari" zamonaviy ta'lim texnologiyalarning nazariy sohada yangi pedegogik jarayonlar bilan qurollantirish, yangi pedagogic darajada jarayonni samarali tashkil erishlari uchun zarur mahoratlarga ega bo'lish, zamonaviy pedagogik texnologiyalar, ijobiy va metodik to'g'ri bajarishga tayyorlikni shakllantirish, mustaqil ishlash, o'zini tarbiyalash, mutaxassislik darajasini doimiy oshirib borishga intilishni faolashtirish har bir pedagog va talabaning asosiy ishlaridan biridir.

Bugungi kunimizda, ta'lim rivojlanishiga katta e'tibor qaratilmoqda. Ta'lim texnologiyalarining nazariy asoslarini o'rganish maqsadida bir qator ishlar amalga oshirilmoqda.

1) Zamonaviy ta'lim amaliyotiga ilmiy asoslangan tajriba va sinovda tekshirilgan didaktikaga oid yangiliklar, tajriba-qoidalarini joriy etish majburiyligini taqozo etish.

2) O'quv jarayonini maqbullashtirish.

3) Ta'limga yangiliklar iritish, faol usullar, tashkiliy masalarning yangi yechimlarini tashkil etish.

4) Talaba va pedagoglarning o'quv jarayonidan natijalar qo'lga kiritish va rag'batlantirish.

Albatta, barcha sohada siz uchun qizib bo'lgan yo'nalish tanlansa bu soha bo'yicha muvaffaqiyatga erishishingiz siz uchun qiyin bo'lmaydi. Bu borada yoshlarimizning zamonaviy musiqa va xalq musiqasi uyg'unlashtirish uchun bir qancha ishlar amalga oshirmoqda. Bunga misol qilib, Prof. N. Salomovanning "O'zbek xalq musiqasi nafaqat an'anaviy shaklda, balki zamonaviy musiqiy ijodda ham keng qo'llanilishi mumkin. Bu esa musiqiy madaniyatimizning boyishiga va yangilanishiga xizmat qiladi". Prof. B. Rashidovning ta'kidlashicha "An'anaviy musiqa cholg'ulari va ularning zamonaviy musiqada tutgan o'rnini haqida chuqur tadqiqotlar o'tkazish zarur. Bu cholg'ularning zamonaviy ijro uslublarida qo'llanilishi milliy musiqiy merosimizning davomiyligini ta'minlaydi. Zamonaviy musiqadan foydalanishning musiqaga yangi bir janr sifatida kirishiga va bu bilan bir qatorda boyishiga va rivojlanishiga ham katta ta'sir ko'rsatadi.

Bir qancha musiqa sohasida qiziqishlari bor talaba-yoshlar musiqa madaniyatining rivojlanishiga ulkan xissa qo'shmoqda. Masalan ;

- AL musiqalar, ya'ni sun'iy entelekt orqali musiqalar yaratish ommalashib bormoqda.
- TV va televidiya orqali live performanslar va virtual konsertlar yangi shakllari takomillashmoqda.
- Raqamli yozuv disklarining yozib olinishi.
- Striming xizmatlarining kengayishi: Ijtimoiy tarmoqlar, saytlar, kanallar, ilovalar orqali musiqaning tarqalishiga zamin yaratmoqda.

Xulosa qilib aytganda, texnologiyadan to'g'ri yo'lda foydalanish ma'lumotga ega bo'lishimizda, ilmiy-tadqiqotlar bajarishimizda, yangilik kiritishimizda va fanning rivojlanishiga hissa qo'shishimiz uchun katta o'rin egallaydi. Zamonaviy texnologiyalardan foydalanib milliy musiqamizni boyitish yangi bir talqinda cover musiqalarni yaratish bugungi kunimiz talablaridan biri deya atasak mubolag'a bo'lmaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1) Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2016 йил якунлари ва 2017 йил истиқболларига бағишланган мажлисидаги Ўзбекистон Республикаси Президентининг нутқи. // Халқ сўзи газетаси. 2017 йил

- 2) 1997-yil 29-avgust O ‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisida qabul qilingan “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”
- 3) Z.F.Sharopova “Ta’lim Texnologiyalari” Toshkent-2019